

**ELEKTRON POCHTA XATLARINING YARATILISHI VA OMMALASHISHI****Ashurova Muxayyoxon Sanjarbek qizi**

ADCHTI doktoranti

E-mail: [mohinabonu9414@mail.ru](mailto:mohinabonu9414@mail.ru)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada elektron pochta xatlari, ularni yozilish tartiblari, turlari, elektron pochta yaratgan olimlar va yaratilish tarixi, axborot xatlari, hamda o‘zbek va ingliz tillarida elektron pochta xatlarining farqlari haqida ochib berilgan

**Kalit so‘zlar:** e-mail, pochta, axborot, muloqot, telegram, format.

Bilamizki, yozma muloqot yaxshi, chunki u og‘zaki muloqotdan farqli ravishda saqlanib qoladi, unga yillar davomida qaytish mumkin. Yozma muloqot fikrni yaxshiroq yetkazib berishga o‘rgatadi: og‘zaki muloqotda odam o‘zini qanaqa tutishi, mimikasi, nafas olishi va hokazolar suhbatga ta‘sir qilishi mumkin, lekin yozma muloqotda juda aniqlik bilan toza fikrlash lozim. Stiven Sinofski yozganidek: “Yozish bu — fikrlash” [2, 8].

Hozirda asosiy muloqot messengerlar orqali bo‘layotganda biror narsani yaxshiroq o‘ylab javob berish, biror narsaga chuqurroq fokus qilish imkoniyati kamayadi, albatta. Shuning uchun ham elektron pochta Telegram yoki boshqa messenjerdan afzal ko‘rib kelinadi. Elektron pochta bir qancha afzalliklari bor: uzun formatdagi muloqotlar uchun qulay: bemaol 20-25 minut o‘tirib, formatlab yaxshi xat yozsa bo‘ladi; biroz xatolarga yo‘l qo‘ygandan so‘ng, odam fikrini yaxshi yetkazib berish uchun harakat qilishni boshlaydi; elektron pochta — ish etikasining bir qismi — axborot texnologiyalariga bog‘liq bo‘lgan har qanday mutaxassis bilishi lozim; elektron pochta protokoli ochiq: siz ixtiyoriy pochta servisida ro‘yxatdan o‘tib, ixtiyoriy kliyentni (email client) ishlatishingiz mumkin; suhbatdoshdan zudlik bilan javob olish kutilmaydi: elektron xatni yuborgandan keyin bemaol boshqa ishlarni davom ettirish mumkin; Telegram kabi messenjerlarda esa yuborilgan xabarga darhol javob olish tabiiy ravishda kutiladi (instant messenger); ichiga rasmlar, havolalar, GIF va hokazo qo‘yib ham formatlash mumkin. Shuning uchun hozirgi kunda e-mail juda ham rivojlangan. Undan ko‘p insonlar foydalanib keladi.

**E-mail qanday paydo bo‘lgan?**

Ko‘plab texnologik yangiliklar singari elektron pochta ham harbiy tadqiqotlar mahsuli hisoblanadi. 60-yillar yakunida Rey Tomlinson yangi tadqiqot ustida ish olib bordi. Olib borilayotgan ishning mazmun-mohiyati harbiy aloqa tarmog‘i, internetning ilk shakli – ARPANET bilan bog‘liq yangi texnologiyani yaratish bo‘lgan. Rey EHM uchun fayllar uzatish dasturini yozdi. Keyinroq fayllarni uzatish sohasida tajribaga ega Tomlinsonga SNDMSG nomli dasturni modifikatsiya qilish topshirildi. Amaldagi dasturda oddiy xabarlarni o‘zaro almashish bitta komputerdan amalga oshirilishi mumkin edi, xolos. Tomlinsonga yuklatilgan vazifa – xabarlarni bir komputerdan ikkinchisiga jo‘natishni ta‘minlash bo‘lgan. Vazifa 1971-yilning oktabrida muvaffaqiyatli bajarildi. Shuningdek, bu davrda komputerlar juda qimmat bo‘lib, oddiy aholi undan foydalanish imkoniga ega emasdi.

Bir necha yillar o‘tib, Tomlinson The Times jurnaliga bergan intervyusida ilk xabar qanday ko‘rinishda bo‘lganini eslolmasligini aygan edi, balki u shunchaki harflar yig‘indisi, masalan, QWERTY shaklida bo‘lgan bo‘lishi mumkindir deb ta’riflagan.

Elektron pochta ixtirosidan tashqari, Tomlinson @ belgisini ham mashhur qilib yubordi. U tarmoqdagi komputer va elektron pochtni qabul qiluvchi uchun manzil o‘ylab topdi. Bu ikki turdagi axborotni ajratish uchun u aynan @ belgisini tanladi.

### **Ommaviylashishi**

O‘sha 1971-yildagi ilk xabardan so‘ng ARPANETda emaildan foydalanish ommalasha bordi. Biroq, uning haqiqiy ommalashuvi o‘tgan asrning 90-yillarida World Wide Webning dunyoga kelishi bilan bog‘liq. O‘shandan boshlab email millionlab insonlar mehnat faoliyatining ajralmas qismiga aylandi.

2001-yili Kaliforniya universiteti qoshidagi axborot tizimlari menejmenti maktabi bir kunda o‘rtacha 31 milliard elektron xat jo‘natilishini ma‘lum qildi. 2008-yilga kelib, bu raqam kuniga 170 milliardga yetdi. Bu 1 bir soniyada 2 million email jo‘natiladi deganidir. Elektron xat almashinuvlari miqdori kamaygani yo‘q. Pingdomning statistikasiga ko‘ra, 2010-yilga kelib bir kunda jo‘natiladigan elektron xabarlar soni 294 milliardni tashkil etgan.

Ingliz tilida e-mail har xil kontekstda ishlatiladi: elektron pochta (Gmail is a free email service developed by Google), elektron pochta manzili (what’s your email? [address]), elektron xat (I’ll send you an email). Quyida e-mail sifatida elektron pochta nazarda tutiladi.

### **Email manzili (qutisi) va servislari**

Elektron pochtdan foylana olish uchun pochta manzili bo‘lishi lozim: mail@example.com kabi. Juda ko‘p tekin servislarda hisob ochib email manziliga ega bo‘lish mumkin. Hozirgi paytda eng yaqqol variant: Gmail. Undan keyin Outlook, Yahoo!, Yandex kabilar.

### **Emailni ishlatilishi**

Gmail spamni juda yaxshi ajratadi (masalan, Afrikadagi boy qarindoshingiz o‘lgandan keyin sizga 10 million dollar meros qolgani haqida xatlar — spam), tez, veb-versiyasi va kliyentlari qulay, Googlening boshqa servislari bilan yaxshi ishlaydi. Bu ko‘rinishdagi manzil beradi: falonchi@gmail.com

E-mail manziliga ism yoki nomni qo‘shib ketish imkoniyati ham bor. Bu xatni qabul qilayotgan odam muhokama ishtirokchilarini tanimaganda yordam beradi. Buning uchun xat yuborayotganda email manzillarini quyidagicha yozish yetarli: Zulfiya Rashidova [zulfiya@gmail.com](mailto:zulfiya@gmail.com).

Elektron pochta (e-mail) — ma’lumotlarni uzatish tarmog‘i orqali axborotlarni bir foydalanuvchi elektron qutisidan boshqasinigiga jo‘natish, qabul qilish va ma’lum vaqtlargacha saqlanishini ta’minlovchi dasturiy-texnik vositalar to‘plami. E-Mail axborotlarni tarmoqning bir punktidan boshqasiga tezkor uzatishni ta’minlaydi. E-mail hamma joyda kerak bo‘ladi. Xattoki "Google, You tube, Instagram, Facebook, Twitter"larga ham e-mail bilan kiramiz. E-mailda har xil elektron axborot tizimlari vositasida axborotlar dunyoning istalgan burchagiga uzatiladi. E-maildan uzluksiz ravishda yoki ma’lum vaqt (seans)larda foydalanish mumkin. E-mail XX asrning 60-yillarida "katta" hisoblash mashinalarida "ko‘p foydalanuvchilar tartibi" dasturining

ishlatilishidan boshlangan. 1989-yilda birinchi marta tijorat pochta xizmatlari bilan internet o‘rtasida aloqa o‘rnatilgan [1, 12].

O‘zbekiston hududida E-mail xizmati 1990-91-yillarda ma‘lumot uzatish tarmog‘i operatorlari tomonidan taqsim etila boshlandi. 1997-yilda Toshkent pochta korxonasi "Ke1sot" tarmog‘i orqali E-mail xizmatlari punkti ishga tushirildi. Hozir O‘zbekistonda fuqarolar, korxonalar, xonadonlar internet tizimiga ulangan kompyuterlar va "Internet kafe"lar orqali E-maildan foydalanadilar. Internetga chiqish imkoniyati bo‘lmagan mijozlar uchun "O‘zbekiston pochta" aksiyadorlik tarmog‘i orqali E-mail va gibrid pochta (pochtani qabul qilish, ishlov berish va yetkazish jarayonida E-mail va an‘anaviy pochta resurslari ishlatiladi) xizmatlarini yo‘lga qo‘yish ishlari hozirgi kungacha olib borilmoqda. Gibrid pochta orqali korxonalar, tashkilotlar va o‘quv muassasalaridan olingan axborot, xabar, reklama, taklifnoma, chaqiruv qog‘ozlari va boshqalar pochta xodimlari tomonidan oluvchilarning manzillariga yetkazilib beriladi.

Elektron pochta (inglizcha: E-mail yoki email, electronic maildan qisqartma) — kompyuter tarmoqlarida informatsiyani uzatish usullaridan biri. FidoNet tarmog‘ida elektron pochta analogi Netmail deb ataladi.

Elektron pochta asosiy xususiyatlaridan biri u to‘g‘ridan to‘g‘ri pochta oluvchiga emas, balkim oraliq bo‘g‘in orqali yuboradi. Bu oraliq bo‘g‘innig nomi pochta yashigi bo‘lib, u serverda joydir, habarlar odatda o‘sha yerda saqlanadi va odatda unga faqat parol bilan yo‘l qo‘yiladi[3, 8].

Pochta serverlariga pochta bilan ishlovchi programmlar orqali yoki veb interfeys orqali kirish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Вишнякова Е.А. Электронное письмо в составе сетевого текста на английском языке: Док.(PhD) дисс. афтореф. – Москва,2007.
2. Каримов Р. Тижорат хатларининг лингвопрагматик аспекти: Филол.фан бўйича фалс. Док.(PhD) дисс. афтореф. – Тошкент,2018.
3. Корнеева М. Г. Лингвистические составляющие жанра электронное делового письма. Док.(PhD) Автореф. Дисс.Москва –2016.
4. Лутфуллаева Д. Мустақиллик даври расмий-идоравий иш услуби тараққиёти. – Тошкент,2020.
5. [ziyo.com.uz.sayti](http://ziyo.com.uz.sayti)
6. [grant.gow.uz](http://grant.gow.uz)